Beyond Accountability: A Growth-Oriented Teacher Appraisal System for Professional Development.....	537
<i>Sardorbek Rislikboyev</i>	
Milliy qadriyatlar – millat ko'zgusi .....	542
<i>Sulaymonova Tanzila Zoir qizi</i>	
Tarbiya jarayoni mazmuni va mohiyati.....	545
<i>Sultonov Ismoiljon Qodirjon o'g'li</i>	
Nutqni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati va shart-sharoitlari.....	548
<i>Tursunova Kamola Ulug'bek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotining milliy imidjini rivojlantirish va boshqarish texnologiyalari .....	552
<i>Valiyeva Hamida</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga kompleks tayyorlash mazmuni.....	556
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna</i>	
10-12 yoshli stol tennischilarni jismoniy tayyorgarligini yordamchi mashqlar majmuasini qo'llash orqali rivojlantirish.....	559
<i>Yaqubova Zulayxo Alisherovna</i>	
Gumanitar fanlarda milliy folklardan foydalanishning ahamiyati.....	564
<i>Abduxakimova Maxfuza Abduraxmonova</i>	
Классификация сказок и их характерные черты .....	568
<i>Мусурманова Азиза Камиловна</i>	



Необходимость развития коммуникативных компетенций у студентов медицинского ВУЗА.....	572
<a href="#">Шукурова Нодира Тиллаевна, Фуркатова Сабрина Фармоновна</a>	
Oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	576
<a href="#">Evatov Saminjon Sobirovich</a>	



# MA'NAVIY TARAQQIYOT SHARQ ALLOMALAR MEROSIDA



Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna  
 Oriental universiteti, Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası  
 katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola "Ma'naviy taraqqiyot sharq allomalari merosida" deb nomlanadi. Maqolada Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumi, Xusayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy tomonidan ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalasiga oid bildirilgan fikr-mulohazalar chuqur o'rganilgan va tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, halollik, ma'naviy-axloqiy sifatlar, ta'lim-tarbiya, axloq, shaxs, inson-parvarlik.

**Abstract:** This article is titled "The Heritage of Eastern Thinkers on the Harmony of Spirituality and Materiality." The article analyzes the thoughts of ideal human beings. It thoroughly explores and examines the views of great scholars such as Abu Nasr al-Farabi, Yusuf Khas Khajib, Jalaluddin Rumi, Husayn Vaiz Kashifi, Alisher Navoi, and Abdulla Avloni on the unity of moral and material life.

**Key words:** spirituality and materiality, honesty, education, upbringing, morality, individual, humanism.

**Аннотация:** Название данной статьи – "Наследие восточных мыслителей о гармонии духовного и материального". В статье глубоко изучены и проанализированы суждения Абу Насра аль-Фараби, Юсуфа Хос Хожиба, Джалолиддина Руми, Хусайна Ваиза Кашифи, Алишера Навои и Абдуллы Авлони о проблемах гармонии духовного и материального совершенствования жизни.

**Ключевые слова:** духовность, обучение, воспитание, мораль, личность, гуманизм.

## KIRISH

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundaygina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz.

*Birinchidan*, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

*Ikkinchidan*, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

*Uchinchidan*, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo'lishning o'zi katta baxt, katta sharafdir. Gap barkamol shaxs haqida borar ekan, shu o'rinda savol tug'iladi: barkamol shaxs o'zi kim, u qanday fazilatlar egasi bo'lishi lozim?

Barkamol shaxs – chuqur bilimga ega bo'lgan, bir qator go'zal fazilatlarni vujudida mujassam etgan, zamona talabiga javob beruvchi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida jamlagan adolatli, vijdonli, imon-e'tiqodli, mehr-muruvvatli, irodali, or-nomusli, matonatli va chidamli, erkin fikrlovchi, o'z xalqi, millati ravnaqi uchun kurashuvchi, Vataniga fidoyilik bilan xizmat qiluvchi, tadbirkor va tashabbuskor shaxsdir. Biz fikr yuritayotgan masala, ya'ni ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi borasida buyuk allomalar ham ko'plab asarlar yaratganlar, o'z mulohazalarini bildirganlar. Zero, barkamol shaxs tarbiyasi masalasida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda buyuk allomalarning meroslariga murojaat etish, barkamol shaxs tarbiyalashdek ulkan maqsadimizni amalga oshirishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Quyida biz allomalar meroslarining o'ziga xos jihatlari yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo aqlli, idrokli insonlarni ulug'lagan hamda odamlarni tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarni o'rganishga, ilm-fanni mukammal egallab, baxtli hayot qurishga, ma'naviy va moddiy hayotning barcha lazzatlaridan oqilona bahramand bo'lishga undagan. Alloma insonning qadr-qimmatini uning mol-mulki bilan emas, balki o'z vataniga, yon-atrofdagi insonlarga nisbatan qanchalik foyda keltirishiga va munosabatiga qarab belgilanishini e'tirof etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shahar hokimining fazilatlarini sanash orqali barcha insonlarni shahar hokimi kabi bo'lishga chorlaydi. Fozillar shahri hokimi, avvalo, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zoidagi nuqson halal bermasligi, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim; bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur; u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur; u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va bu alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur; fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur; u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur; taom yeyishda, mablag' to'plashda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi zarur; odil va haqqo'y odamlarni hurmat qiladigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur; u o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, past-kashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma olihimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur; bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur; tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, barchaga birday haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur.

O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur; o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur, deb izohlaydi. Alloma yuqoridagi fikrlari bilan barchani ana shunday fazilatlar egasi bo'lishlikka da'vat etadi. Ushbu fazilatlar esa pedagogik jarayonda amalga oshiriladi. Demak, pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda allomaning asarlariga murojaat etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya" kitobida yozilishicha: "Men ko'p nozik-nihol raqqosalarning latif raqslarini tomosha qildim. Go'zal parichehra soqiylar qo'lidan rohatlandim. Ammo hech bir totganim lazzatlar, mendan yaxshilik ko'rgan kishilarning minnatdorlik bilan boqishlaridan topgan farog'atimga barobar bo'la olmaydi." Demak, kishi eng yuksak lazzatni o'zgalarga yaxshilik qilganida oladi. Chin insoniy rohat ham shu bo'lsa kerak, deb insonlarni savob amallarni bajarishga da'vat etadi. Mehnat – inson ma'naviy-axloqiy kamoloti asosi bo'lib, u insonni maqsad sari yetaklaydi. Alloma yozadiki, oziq-ovqat bilan inson yashaydi, avlod qoldiradi; kiyim-kechak kishini zarardan saqlaydi, issiq-sovuqda unga kerak bo'ladi, makon unga joy bo'ladi, zarardan asraydi. Oltin va kumush esa bunday xususiyatlarga ega emas. Ular – har ikkalasi ham tosh, odamni na to'ydira, na chanqog'ini bosar; na zo'ravonlikdan qutqara, na yomonlikdan saqlay oladi. Ular faqat insonga zarur bo'lgan narsalarni sotib olishda kerak bo'lganlarigina maqtaladilar. Alloma ikkiyuzlamachilik, tuhmat, yolg'onchilik, omonatga hiyonat qilish, boshqalar mulkini xiyla bilan egallash, xudbinlik kabi illatlarning barchasini yomon xulq sifatida baholab, insonni barcha narsalardan mahrum etishini ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar orqali insonlarni eng yaxshi xulq egasi bo'lishga chorlaydi.



Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (Saodatga yo’lovchi bilim) asari nihoyatda kuchli hayotiy zarurat va ma’naviy ehtiyoj bilan aloqador. Alloma har bir shaxs jamiyatning og’irini yengillatishga urinmog’i kerakligini targ’ib qilib, buning uchun har bir kishi o’z ishi bilan shug’ullanmog’i, halol, pokiza yashamog’i, o’zining shaxsiy manfaatlarini doirasida biqinib qolmasdan el-yurt manfaatlarini ustun qo’ya oladigan darajaga ko’tarilmog’i shartligini talqin etadi.

Unsuralmaoniy Kaykovus “Qobusnoma” asarining muallifi. “Qobusnoma” allomaning o’g’li Gilonshohga pand-nasihatlar tarzida yozilgan ulkan ne’matdir.

Asarning “Mol jam etmog’i zikrida” deb nomlangan bobida insonda ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligini rivojlantirishga doir o’ziga xos fikr-mulohazalar yuritiladi. Masalan: “Ey farzand, o’zingni mol jam etmakdin g’ofil tutmag’il va lekin har narsani etmak tilasang jahd qilg’il, toki halollik bila jam bo’lsun va hamisha senga boqiy hamda yoqimli bo’lsun.” Bu orqali alloma har bir insonni boy-badavlat hayot kechirish uchun dangasa bo’lmasdan, ehtiyojiga yarasha mol to’plashga chorlaydi. Lekin boylikka halollik yo’li bilan erishish lozimligini va bunda to’plagan boyliklari unga yoqimli, totli bo’lishini uqtiradi. Yoki: “Molni jam etg’ondin so’ng yaxshi saqlag’il va har botil ish uchun uni qo’ldin bermag’il, nedinkim saqlamoq yig’ishdin mushkuldir. Agar kerak vaqtda zarur ish uchun olib xarj qilib uni o’rnini to’ldirg’il... Molni doimiy turar deb unga ko’ngil qo’ymag’il. Toki biror vaqt u yo’q bo’lsa tangdil bo’lmag’aysan”<sup>[5]</sup>.

Bu pand-nasihatlarda u insonni mehnat orqali halol topilgan boylikni to’g’ri saqlash va zarur bo’lgandagina iqtisod qilib ishlatish lozimligini uqtiradi. Shu bilan birga, mol-dunyoga berilib ketmaslik, boylik ba’zan bor bo’lsa-da yo’q bo’lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Kaykovusning yuqoridagi fikrlari orqali shaxsda moddiy boylikka nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash mumkinligi ko’rinadi. Fikrimizni isbotlash uchun yana bir misol: “Agar molsizlikdan qashshoq bo’lsang, aqldan boy bo’lmoqqa harakat qil, chunki mol bila boy bo’lg’ondan aql bila boy bo’lg’on yaxshiroqdir. Aql bila mol jam etsa bo’lur, ammo mol bila aql o’rganib bo’lmas. Bilg’ilki, aql bir qimmatbaho narsaki, uni o’g’ri ololmas, u o’tda yonmas va suvda oqmas”<sup>[6]</sup>.

Alloma insonlarning eng yaxshi fazilatlarini, ularning xulq-atvorini, xislatlarini ham uch xilga bo’ladi: aql, to’g’rilik, juvonmardlik (insonparvarlik, saxiylik, qo’li ochiqlik). Kaykovusning fikricha, insonlarning hammasi shunday sifatlarga ega bo’lishni istaydilar, lekin bu xislatlarga hamma ham erisha olmaydi. Chunki ulardagi ba’zi xislatlar – sustkashlik, befahimlik, hovliqmalik – insonning yaxshi xislatga erishishida, ya’ni ma’naviy barkamollik yo’lini to’sib qo’yishini eslatib, buning barchasiga insonning o’zi sababchi ekanligini e’tirof etadi.

“Agar moling ko’p bo’lsa, uni taqdir va tadbir bila ishga yaratg’il. Nedinkim taqdir va tadbir bila yarolg’on ozgina mol taqdirsiz va tadbirsiz ko’p moldin yaxshiroqdir. Agar mol oz bo’lsa ham, yaxshi saqlamoqni vojib bilg’ilki, har kishi oz narsani saqlay olmasa, ko’p narsani ham saqlay olmag’uvsidir. Mol jam etarda kohinlik qilmag’il, bu badbaxtlikning shogirdidir. O’zingga ranj berg’il, ya’ni o’zing mashaqqat tortg’il, nedinkim mol qiyinchilik bila yig’iladi va kohinlik bila yo’q bo’lur. Donolar debdurlarki: ‘Harakat qiling, to obodon bo’lg’aysizlar va ozga qanoat qiling, toki mollaringiz ko’p bo’lg’ay, yumshoqtabiatli va shirinso’z bo’ling, do’stingiz ko’p bo’lg’ay”<sup>[7]</sup>. Demak, mehnat evaziga topilgan boylikni g’afatda qo’ldan chiqarish – axmoqlik. Shu bilan birga, topgan molga nisbatan o’ta ziqna va qattiqqo’l bo’lish – badbaxtlik alomatidir. Har qanday sharoitda sabrli va qanoatli bo’lish lozim, shundagina xalq hurmatiga sazovor bo’linadi.

“... Ro’zg’oringning zaruriy ishlarida taqdir nuqson ko’rguzmag’il. Joningg’a jabr qilmag’il: mol har nechakim azizdur, ammo joningdan aziz emasdur. Mol jam etmakda xato qilmag’il, har odam o’z ishida xato qilsa, saodatdan mahrum bo’lg’ay... muddaolaridin bebahra qolg’ay, nedinkim, rohat mehnatdadur. Shundoqki, bugunning rohati kechagi mehnatning natijasidir. Har narsa qo’lingga tushsa, bir tangandan ikki hissani o’z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig’ va ojizlig’ vaqtini zaruriy ishlariga ehtiyot qilib qo’yg’il va undan ko’z yumib, aslo unga qo’l urmag’il. Qolgan ikki hissani o’zingni ziynat va asbobingga sarf etgil”<sup>[8]</sup>. Bu mulohazalar har bir insonni ro’zg’or ishlariga e’tiborli bo’lishga, ro’zg’orni to’kis qilish uchun doimiy mehnat qilish zarurligini uqtiradi. Kechagi mehnat bugungi totli rohatga zamin bo’lishini tushuntiradi. Topilgan molning ikki qismini oilaga sarflash va qolganini ehtiyoj uchun ishlatish lozimligi izohlanadi. Ushbu fikrlar ta’lim-tarbiya jarayonida oilaparvarlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jaloliddin Rumiy “Ma’naviy Masnaviy” asarida ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo’lmagan kishilarga qarata shunday deydi: “Shunday kimsalar borki, yungdan sher niqobin yasaydilar va gadolik qiladilar. Ular go’yo zohiran tariqat sherlarining qiyofasiga kiradilar. Shu yo’l bilan o’zlarining dunyoviy muddaolariga erishish uchun kurashadilar.” Haqiqatda, bunday insonlar nopoklikdan hazar qilmaydilar. Bunday holatlarning oldini olish uchun insonda moddiy va ma’naviy hayot uyg’unligini yoshlikdan shakllantirish zarur. Bu borada nafs tarbiyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Husayn Voiz Koshifiy o’zining “Futuvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati” asarida inson axloqini poklash, mehr-shafqatli bo’lish, himmat va mardlik ko’rsatish, bor narsasini hech kimdan qizg’anmaslik, qalbni kibru havo, gina, hasad va g’azabdan pok tutishni, xalq xizmatida bo’lishni targ’ib etadi.

Abdulxoliq G’ijduvoniyy “Vasiyatnoma”sida shunday deydi: “Ilm o’rganmasdan turib ishga kirishmag’il, boylikka hirs qo’ymag’il... Odamlarni maqtoviga uchmag’il va alarning muhokamasidan xafa bo’lmag’il... Ulamolarni hurmat qilg’il, shayxlarga xizmat qilg’il, alardin mulkingni ayamag’il, alarning g’azabini keltirmag’il,

ehtiyot bo'lg'il... Darveshlikni boylik deb bilmag'il, oddiy o'rinni faxriy o'rin deb bilmag'il, ilmni nodonlik sanaguvchi, pinhonu oshkor ishlarini sarhisob qilolmaydigan, oxiratni unutgan odamlar bilan do'st bo'lmag'il" [9].

Bu fikrlar insonni ilm o'rganishga da'vat etadi. Harakatni o'ylab qilishga, do'st tanlashda ehtiyot bo'lishga, boylik va mansab ortidan quvmaslikka, halol mehnatga undaydi. Yosh avlod tarbiyasida Alisher Navoiy merosi alohida ahamiyatga ega. Alomaning asarlarida barkamol shaxs, uning jamiyatdagi o'rni, ma'naviy va moddiy uyg'unlik, halollik, poklik, rostgo'ylik, iymon-e'tiqod, sabr, insonparvarlik, qanoatlilik singari fazilatlar keng yoritiladi. Xususan, "Hayrat ul-abror", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub" asarlarida qanoat, sabr, tavoze, himmat, vafo, til odobi, ezgulik, kamtarlik, nafsni tiya bilish kabi fazilatlar ta'riflanadi. Alloma deydi: "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir" [10]. Navoiy insonni sharaflaydi, baxtli hayotga chorlaydi, fidoiylikni targ'ib etadi.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur og'ir iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, insoniy fazilatlarni yo'qotmagan. Rumern Goden keltirgan lavhaga ko'ra, Humoyun yoshligida Dehlidagi xazinani egalagan. Bu hol Boburshohni ranjitgan, ammo Humoyun otasining g'azabiga sabab bo'lgan xatoni qaytarmagan va ukalariga, xiyonat bo'lsa-da, yomonlik qilmaslik haqida va'dasiga sodiq qolgan [11]. Bu voqea shuni anglatadiki, inson ajdodlariga munosib bo'lishi kerak. "Palagi toza" degan ibora bejiz aytilmagan. Humoyunning yuragi pokligi, halolligi, saxovati, mehr-muhabbati uning ma'naviy boy inson ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Boburshohning bergan o'g'it va tarbiyasi samarasiz bo'lmagani ham ayon bo'ladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Atrofimizga diqqat bilan e'tibor qaratsa, arziyas meros tufayli tug'ishganlar orasida mehr-oqibatning yo'qolib borayotgani, bir-birining ustidan turli haqorat va bo'htonlarga to'la yozishmalarning avj olayotgani, bir-biriga nisbatan adolatsizlik va hasadgo'ylik bilan munosabatda bo'layotgan, ammo buyuk ajdodlari shuhrati bilan ko'krak kerib yurgan insonlarni ko'rib, bu darajada ham ma'naviy tubanlashuv, moddiy boylikka mukkasidan ketish mumkinligidan hayratda qolamiz.

Abdulla Avloniy axloq haqida fikr bildirar ekan, axloq – bu ezgulikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli, deb aytadi. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning timsolidir. U hamma narsa tarbiyaga bog'liq ekanini ta'kidlab, shunday deydi: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikkisi bir cho'ponning o'ng ila tersi kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, cho'ponning ustuni qo'yub, astarini yuvub ovora bo'lmoq kavidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur" [12].

Abdulla Avloniyning bildirgan fikr-mulohazalarini tahlil qilar ekanmiz, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi – bu insonning ichki dunyosini nazorat qilish va uni ongli tarzda boshqara bilishidir, degan xulosaga kelish mumkin. Har bir insonda ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, eng avvalo, ularning o'zidan katta yoshdagilar – ota-ona, yaqinlari, o'qituvchilar va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari orqali shakllanib, so'ng tengqurlari bilan munosabatlarda takomillashadi. Shu ma'noda, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi shaxs ta'rifi va tavsifining bosh mezoni sifatida, uning ruhiyatida vujudga kelish, shakllanish va taraqqiy etish jarayonlari hamda qonuniyatlarini o'rganish talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, ularning har tomonlama barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.


Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, buyuk allomalarda o'z meroslarida insondagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlar egasi bo'lishga barchani chorlaydilar.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz buyuk allomalarning yaratgan asarlari va bildirgan fikr-mulohazalarini o'rganar ekanmiz, ularning ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi, ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga juda katta e'tibor berganliklariga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan, pedagog va tarbiyachilarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda buyuk allomalarning ma'naviy meroslaridan unumli foydalanishlari, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-12-29.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1998. – B. 130–134.
3. Abu Rayhon Beruniy. Mineralogiya. – Toshkent: Fan, yil ko'rsatilmagan. – B. 13.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – B. 31–72.
5. Abduxolij G'ijduvoni. Vasiyatnoma. – Toshkent: nashriyot ko'rsatilmagan, 1993. – B. 14–15.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulb. Nasriy bayon muallifi: Inoyat Maxsumov. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 48 bet.
7. Rumern Goden. Gulbadan. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 119–174.
8. H. Boboev, Z. G'ofurov. O'zbekistonda siyosiy-ma'rifiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – Toshkent: Yangi avlod, 2001. – B. 322.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.